

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING SHAXSNI MAJBURIY DAVOLANISHGA YUBORISHNI TAKOMILLASHTIRISH FAOLIYATI

*IIV Akademiyasi 3-bosqich kursanti
Ravshanov Aslbek Mansurjon o'g'li*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Profilaktika inspektorining shaxsni majburiy davolanishga yuborishni takomillashtirish faoliyati to'g'risida fikr yuritilgan hamda ushbu faoliyat yuzasidan ko'plab tushunchalarga tarif berilgan.

Kalit so'zlar: huquqiy asoslari, zo'rvonlik, e'tiqod qilish, tintuv o'tkazish, tajovuz, normativ-huquqiy hujjat.

Mazkur mavzuda Profilaktika inspektorining shaxsni majburiy davolanishga yuborishni takomillashtirish faoliyati tahlil qilinadi.

Ma'lumki, jamiyatning ma'naviy qiyofasi bevosita qonun ustuvorligiga bog'liq, biz qonunga bo'ysunib yashashni turmush tarziga aylantirmas ekanmiz, jinoyatchilikning oldini olish muammo bo'lib qolaveradi¹. Huquqbuzarliklar profilaktikasida yakka profilaktik faoliyat o'zi ham muayyan huquqiy asoslar zahirida tashkil etiladi, qonunga asoslanmagan har qanday faoliyat nafaqat huquqiy demokratik davlat prinsiplariga zid, balki amaldagi huquq-tartibotni tanazzulga olib keladi.

Alkogolizm – spirtli ichimliklarga ruju qo'yish. Spirtli ichimliklarni bir yo'la ichib to'satdan mast bo'lib qolish va doim ichimliklarni qo'msab, xumor bo'lib turishdan iborat surunkali alkogolizm farq qilinadi. Bir yo'la odam ichkilik ichib, mast bo'lib qolganida o'tkir alkogol intoksikatsiyasi boshlangan bo'ladi, ya'ni odam birdan zaharlanadi. Ichkilikdan yengil va o'rta darajada mast bo'lganda davo chorasi olib borilmaydi. Asosiy davo organizmni kuchli zaharlanishdan tozalashga qaratilgan bo'ladi.

Yangi tadqiqot natijalari me'yordan oshmagan ichkilik salomatlikka ziyon yetkazmaydi degan qarashni inkor qiladi.

Buyuk Britaniyadagi sog'liqni saqlash bo'yicha mutaxassislariga ko'ra, alkogolning har qanday miqdori sog'liq uchun zararli va saratonga chalinish xavfini kuchaytiradi.

Horijiy davlat shifokorlari sirtli ichimlik ichuvchilarga haftada 3,5 litr pivo yoki 7 qadahdan ortiq sharob iste'mol qilish salomatlik uchun turli kasalliklar keltirib chiqarishini takidlashgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022—2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60sonli Farmoni. : <http://www.lex.uz>

JSST mazkur holatni qator mamlakatlarda alkohol mahsulotlari reklamasi va marketingiga zo‘r berilayotgani bilan izohladi. Hammasidan ham internetda onlayn e‘lonlar tobora keng o‘rin olayotgani xavotirlidir. Chunki, o‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, spirtli ichimliklarga moyilligi yuqori kishilar ularning jozibador reklamasi bilan to‘qnash kelganda, kamdan-kam hollardagina nafsini jilovlay olishadi. Shu bois JSST hukumatlar va sog‘liqni saqlash tuzilmalarini ogohlikka chaqirib, alkohol mahsulotlari reklamasi bozorini tartibga solishga chaqirdi.

“Spirtli ichimliklar yoshlarning nafaqat sog‘ligi, hayoti va oilasiga, balki butun jamiyatga tahdid solmoqda, deydi tashkilot rahbari Tedros Gebreyesus. Shunga qaramay, ularning savdosi va reklamasi ustidan o‘rnatilgan nazorat nisbatan ancha zaif. Bu borada samaraliroq choratadbirlarni amalga oshirish, sohani tartibga solish orqali qanchadanqancha yoshlar hayotini saqlab qolishga erishishimiz mumkin”.

Spirtli ichimliklarning foydaliligi to‘g‘risida ko‘pgina xato fikrlar va xattoki miflar ham bor. Ular qanchalik haqiqatga mos kelarkin? Kuyida bular xaqida ko‘rib chiqsak.

Spirtli ichimlik yordamida tez isinib olish mumkin, spirtli ichimliklar ko‘pincha qizdiradigan ichimlik deb ataladi. Nimaga? Odamlar ishonadilarki, spirtning isitish qobiliyati bor. Va sovuqda qolib ketgan inson uchun, o‘tkir ichimlikning bir tomchisi – eng yaxshi dori. Bunday fikrda, mayda ushoq haqiqat bor. Gap shundaki, sovish paytida, 50 gram aroq yoki konyak yordam berishi mumkin. Ular tomirlarni kengaytirib, ichki organlarning qon almashish tizimini me‘yorga keltiradi. Spirtli ichimliklarni bundan ko‘p iste‘mol qilish, ter qon oqimini kuchaytirib yuboradi. U qizaradi, va yoqimli isish xissiyoti paydo bo‘ladi. Biroq u judayam soxta – chunki bunda issiqlik chiqarish kuchayadi, va organizm yana ham ko‘proq sovishni boshlaydi. Hamda, inson o‘zini baxtli xis qilishni davom ettiradi.

Xammaga ma‘lumki, O‘zbekistan Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan 2017 yil 10 apreldagi 5005-sonli farmoniga binoan «Ichki ishlar organlarining faolyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya kilishni tamilashda ularni ma‘suliyatini kuchaytirish choratadbirlari to‘g‘risida»gi farmoniga binoan ichki ishlar tizimiga kamchiliklar va muammolar, ularni bartaraf etish yo‘llari, bir so‘z bilan aytganda oldimizda turgan dolzarb vazifalar anik-ravshan ko‘rsatib berildi.² Yurtboshimiz ta‘kidlaganidek «Ichki Ishlar organlari hodimlari inson huquqlari va fuqarolar xafsizligining ishonchli garovi bo‘lishlari kerak.

Mamlakatimiz umumiy aholisining **01.07.2024 yil** holatiga ko‘ra **36 000 000** nafardan oshgan bo‘lsa, shundan **48 foizini 18 yoshgacha** bo‘lgan bolalar, **66 foizini**

² 2017 yil 10 apreldagi : «Ichki ishlar organlarining faolyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya kilishni tamilashda ularni ma‘suliyatini kuchaytirish

esa – **30 yoshgacha** bo‘lgan yoshlar³ tashkil etadi. Ushbu quvonarli hol ayni paytda, kattalar zimmasiga ulkan mas’uliyat ham yuklaydi. Shu sababli so‘nggi yillarda mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida muhim o‘zgarishlar ro‘y berdi. Shu bilan bir qatorda yoshlarni jamiyatga moslashtirish, jinoyatchilikka hamda yoshlar o‘rtasida spirtli ichimlikka ruju qo‘yish vositalarini tarqatilishiga qarshi kurash bilan shug‘ullanuvchi davlat idoralari hamda ular tizimlarida tez va keng ko‘lamli islohotlar olib borildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022—2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60sonli Farmoni
2. 2017 yil 10 apreldagi : “Ichki ishlar organlarining faolyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fukarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya kilishni tamilashda ularni ma’suliyatini kuchaytirish
3. www.stat.uz. Расмий сайти. 01.11.2023

³ www.stat.uz. Расмий сайти. 01.11.2023